



## Xushxabar

Avval xabar berganimizdek, maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi tomonidan "Barkamol avlod bolalari" festivali viloyatlar bo'yicha bo'lib o'tayotgan edi. Bugun "Barkamol avlod bolalari" festivalining Farg'ona viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Festivalda So'x tumani "Barkamol avlod" bolalar maktabining to'garak a'zolari 3-ta yo'nalish bo'yicha ishtirok etishdi:

Texnika konstruktorlik-robototexnika yo'nalishi bo'yicha Baxtishod Alijonov;

Madaniyat va san'at - "Tasviriy san'at" yo'nalishida Manuchehr Ibrohimov;

1 / 5

Turizm va ekologiya - "Floristika" yo'nalishi bo'yicha Dilnura Janobidinova.

---

Hakamlar hay'ati tomonidan qo'yilgan ballar natijasida floristika yo'nalishi bo'yicha Dilnura Janobidinova 1-chi o'rinni qo'lga kiritdi.

G'oliblikni qo'lga kiritgan g'olib o'quvchimizni erishgan yutuqlari munosabati bilan muborakbod etamiz!

Eslatma: g'oliblarni taqdirlash marosimi 30-noyabr kuni bo'lib o'tadi.

### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**







---

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-25 16:36:01